



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail:
dav_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Mardonov Shoxrux Isroil o'g'li

Sana: 27-12-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 137141

Obyekt nomi «“Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 2-son kasb-hunar maktabi 200 o'rinni yotoqxona qurish va binolarini rekonstruktsiya qilish”»

Buyurtmachi - Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK DUK.

Bosh loyihachi - "PREMIUM ARCHITECT DESIGN" MChJ

Litsenziya 01.07.2020-yil №AL-001130-son

Moliyalashtirish manbai - Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi - Tanlov asosida aniqlanadi.

Qurilish turi Rekonstruktsiya.

Murojaat raqami: № 126992

1. Loyihalash uchun asos

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrda PQ-57-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentabrda 83-son rayosat bayoni.

Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining 06.10.2023-yilgi 1727-1727269-94115-son Arxitektura-rejalashtirish topshiriği.

Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 19.12.2023-yildagi 104553541-son xulosasi.

31.10.2023-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 2-son kasb-hunar maktabi direktori bilan kelishilgan loyihalash topshiriği.

“O'ZGASHKLITI” Toshkent shahar va viloyat filiali tomonidan 2023-yilda berilgan Qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosasi.

Toshkent shahar suv ta'minoti MChJ tomonidan berilgan 2023-yil 20-noyabrda obyektning shahar ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanishni loyihalashtirish uchun 270/4-3926-sonli texnik shart.

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent shahar hududiy” filialining elektr tarmoqlariga ulanish uchun 22.11.2023-yildagi 05-1821-son texnik sharti.

“VEOLIA ENERGY TASHKENT” MChJ tomonidan berilgan 2023-yil 28-noyabrda TTS-1-018-son texnik shart.

Toshkent shahar hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” IK tomonidan yozilgan 2023-yil 12-dekabrda

4-7004-son xati.

“DIN ENGINEERING PRO” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan 2023-yildagi texnik hisobot.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «Ishchi loyiha» bo'yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarining loyiha chizmalari;
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- temirbeton konstruksiyasi loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- elektr ta'minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- tashqi elektr tarmoqlari tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- videokuzatuv tizimi loyihasi bo'yicha chizmalar;
- yong'in signalizatsiyasi tizimi loyihasi bo'yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- tashqi suv va tashqi oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar;
- havoni almashtirish, shamollatish tizimlari va isitish tizimining loyiha yechimlari bo'yicha chizmalar;
- qurilish xarajatlarining umumiy smeta hisob-kitoblari.
- obyektning energiyasamaradorlik pasporti.
- issiqlik hisob-kitobi.
- obyektning qurilishini tashkil etish loyihasi (POS).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Qurilish maydonining o'ziga xos xususiyatlari

- Qurilish va iqlim zonasi-IV.
- Me'yoriy qor yuki-0.50 kg/m²
- Me'yoriy shamol yuk-0.38 kg/m²
- Yer osti suvlari o'rganish jarayonida 10,0 metrda topilgan.
- Cho'kish bo'yicha tuproq sharoitining turi-II.
- Seysmik xususiyatlar bo'yicha tuproq toifasi-III.
- Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi-9 ball.

Bosh reja va arxitektura-rejalashtirish yechimlari.

Obyekt Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och massivi Shahriobod ko'chasi, 3-uy manzilida joylashgan bo'lib, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 2-son kasb-hunar maktabi 200 o'rinli yotoqxona qurish va 640 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan o'quv binosi, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish ishlari olib boriladi.

Bino atrofidagi maydonlar obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi, ariqlar o'rnatilib yo'llar asfaltbeton

bilan qoplanadi. Hududni metall panjarali devorlar o`ralib asosiy kirish qismiga metal darvozlar o`rnatiladi.

Yotoqxona binosi. 4-qavatli, yerto`lali to`rtburchak shakilda, o`lchamlari 39,0x14,4 metr o`qlari 1-9/A-G. Binoning yer to`la qavatida -1 balandligi 3,1 metr (poldan-polgacha) bino qavatlarining balandligi 3,3 metr (poldan-polgacha) tashkil etadi.

Binoning yerto`la qavatida zinapoya, suv tuguni xonasi, elektr qutisi xonasi, kir yuvish xonasi, kiyimlarni quritish xonalari rejalashtirilgan.

Birinchi qavatda tambur, qo`riqchi xonasi, vestibul, zinapoya, qo`l yuvish xonasi, yo`lak, hojatxonalar, qizlar yuvinish xonasi, choyshablar saqlanadigan xona, 4 kishilik yotoq-xonalar, boshliq xonasi, tibbiy xona va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Ikkinchi qavatdada zinapoya, xoll, yo`lak, qo`l yuvish xonasi, hojatxonalar, boshliq xonasi, 4 kishilik yotoqxonalar, 3 kishilik yotoqxonalar, va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Uchunchi qavatdada zinapoya, xoll, yo`lak, qo`l yuvish xonasi, bolalar yuvinish xonasi, boshliq xonasi, 4 va 3 o`rinli yotoqxona va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

To`rtinchi qavatdada xoll, zinapoya, qo`l yuvish xonasi, yo`lak, bolalar hojatxonasi, bolalar yuvinish xonasi, 4 va 3 kishilik yotoqxonalar, va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni -564,9 m².

Binoning umumiy ichki maydoni -1972,5 m².

Binoning umumiy hajmi -8612 m³.

**O`quv binosi.** 4-qavatli, yerto`lali to`rtburchak shakilda, o`lchamlari 44,8x14,2 metr o`qlari 1-8/A-G. Yer to`la qavatida -1 balandligi 2,5 metr (poldan-polgacha), 1-4-qavatlar balandligi 3,0 metr (poldan-shiftgacha) tashkil etadi.

Binoning yerto`la qavatida: zinapoya, suv tuguni xonasi, lift shaxtasi, yo`lak rejalashtirilgan.

Birinchi qavatida foye, yo`lak, o`quv sinfi, perforator xonasi, zinapoya, direktor yordamchisi xonasi, arxiv, psixolog xonasi, erkaklar va ayollar hojatxonasi, lift shaxtasi rejalashtirilgan.

Ikkinchi qavatida zinapoya, yo`lak, direktor xonasi, o`quv sinflari, perforator xonasi, aloqa xonasi, erkaklar va ayollar hojatxonasi, hisobchi xonasi va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Uchunchi qavatida zinapoya, yo`lak, kutubxona, o`quv xonalari, perforator xonasi, kitob ombori, ustalar xonasi, xoll, ho`jalik ishlari bo`yicha xodim xonasi, erkaklar va ayollar hojatxonasi, murabbiylar xonasi, lift shaxtasi rejalashtirilgan.

To`rtinchi qavatida zinapoya, yo`lak, o`quv sinflari, perforator xonasi, arxiv, hodimlar bo`limi, erkaklar va ayollar hojatxonasi, murabbiylar xonasi, lift shaxtasi xonalari rejalashtirilgan.

Binoning texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni -662,1 m².

Binoning umumiy ichki maydoni -3063,5 m².

Binoning umumiy hajmi -11652,9 m³.

Nazorat punkti binosi . 1-qavatli, to`rtburchak shakilda o`lchamlari 4,4x3,0 metr o`qlari 1-2/A-B. Qavat balandligi 2,8 metrni (poldan-shiftgacha) tashkil etadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni -16,1 m².

Binoning umumiy ichki maydoni -10,5 m².

Binoning umumiy hajmi -62,2 m³.

Ayvon. 1-qavatli, to'rtburchak shakilda o'lchamlari 3,0x4,0 metr o'qlari 1-2/A-B. Qavat balandligi 3,0 metr (poldan-shiftgacha) tashkil etadi.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni -12,4 m².

Binoning umumiy ichki maydoni -12,0 m².

Binoning umumiy hajmi -37,2 m³.

Konstruktiv yechimlar.**Loyihalashtirilayotgan MTT binosi.**

Poydevorlar- B20 sinfli, lentasimon quyma temirbetondan.

Loyihada gidroizolyatsiya qilinishi ko'zda tutilgan.

Devorlar-380 mm qalinlikdagi g'ishtdan.

Oraliq devorlar-120 mm qalinlikdagi gazobetondan.

Ustunlar- B25 sinfli, 400x400 o'lchamdagi quyma temirbetondan.

To'sinlar- B25 sinfli, 400x400 o'lchamdagi quyma temirbetondan.

Orayopmalar-tayyor quyma temirbeton plitadan.

Zinapoyalar-quyma temirbetondan.

Tom qismi yog'och konstruksiyali bo'lib, profnastildan qoplanishi ko'zda tutilgan.

Yong'inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi - II tipga mansub.

Konstruktiv yong'in xavf sinfi - F1.1.

Binoning konstruktiv yong'in xavf sinfi - C2.

Favqulotda chiqish eshiklari-yo'laklardan hamda zinapoyalardan.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- binoning tashqi devorlari qalinligi 100 mm bo'lgan issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan;
- devorlar, qoplamalar tom qismi va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo'llangan;
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;
- binoda qisqa vaqtda yonib-o'chadigan qurilmalar (harakatni va yorug'likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan;

- kirish yo'laklarida eshiklarni o'zi yopuvchi mexanizmlar (dovodchik) va berk yopilishi ta'minlangan.
- obyektida jami 66 dona quyosh panellari va 3 dona quyosh kollektorlari o'rnatilishi rejalashtirilgan.

Xarajatlar smeta hisob-kitob hujjatlari.

Binoning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-son qarori hamda ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga asosan ishlab chiqilgan.

Loyiha tashkiloti tomonidan hisoblab aniqlangan binoning ekspertiza ko'rigiga qadar dastlabki narxi buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 12% QQS bilan hisoblanganda - 16 099 986,031 ming so'mni tashkil qiladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Loyihalanayotgan binolarning kelishilgan va tasdiqlangan loyihalash topshirig'iga hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, elektr ta'minoti va elektr yoritish, tashqi elektr tarmoqlari, yong'in signalizatsiyasi, videokuzatuv tizimi, yong'in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari, tashqi suv tashqi oqova suv tarmoqlari, havoni almashtirish, shamollatish tizimlari hamda isitish tizimining loyihada ko'zda tutilgan.

Suv ta'minoti sxema bo'yicha D-200 mmli tarmoqqa ulanadi.

Oqova suv tarmog'i mavjud sxemadagi D-200 mmli shahar oqova suv kollektorining mavjud qudug'iga ulanadi.

Isitish tizimi markaziy tizim orqali amalga oshiriladi.

Sutkasiga suv sarfi 20,0 m³.

Ulanadigan kuchlanishi 10 kV kV.

Ruxsat etilgan umumiy quvvat 221 kVt.

Elektr ta'minoti toifasi II.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 19.12.2023-yildagi 104553541-son xulosasi. Eskiz loyihada bosh reja, binoning fasad ko'rinishi hamda xonalarning joylashuvi 21.11.2023-yildagi 03-6-TSHX-son bayoni bilan kelishilgan.

Loyiha hujjatlarida o'zgarishlar amalga oshirilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi 200-son qarori talablariga rioya qilinsin va ushbu qarorga asosan Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi "Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining" Xulosasi qayta olinib, loyiha-smeta hujjatlari qayta ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda qayta ekspertiza olinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablariga asosan Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin.

Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari

mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihasi va smeta xarajatlari ko'rib chiqildi.

Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

-ekspertiza tekshiruv hamda ishchi loyihadagi qisman tuzatishlar bo'yicha smeta xarajatlarini joriy narxlarda qayta hisoblash natijasida QQS bilan hisoblanganda - 1 126 656,222 ming so'mga qiymati kamaydi.

Ishchi loyihaning dastlabki smeta xarajatlar hisob-kitobining kamayishi yoki tushganligi resurs smeta me'yorlari, mashina va mexanizmlarning narxlari, qurilish materiallarining narxi hamda boshqa xarajatlarni aniqlashtirish natijasida o'zgartirildi.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil, 9-dekabrdagi PQ-4545-son qarorining bandlari bajarilsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil, 26-dekabrdagi «Elektr tarmog'i xo'jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 1050-son hamda 1998 yil 15-maydagi, 210-son qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalariga amal qilinsin.

Shartnoma bo'yicha import texnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmadi.

Buyurtmachi obyekt bo'yicha o'rnatiladigan import uskunalarni sotib olishida 2021-yil 22-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-son Qonun talablariga rioya etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-son qarori va QMQ 2.01.04-18 "Qurilish issiqlik texnikasi" talablariga to'liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-son farmonining tegishli bandlarida ko'rsatilgan talablarga to'liq rioya qilinsin.

Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong'in xavfsizligiga rioya qilinsin.

Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori talablariga asosan Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi Davlat ekologik ekspertiza xulosasi olinsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 255-son qarori talablariq rioya etilsin.

Ishchi loyihaning asosiy qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko'ra "Nazorat o'lchovi" natijalari bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son va 2022-yil 20-apreldagi

200-son qarorlari talablariga qat'iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qaroriga asosan Buyurtmachi qurilishi markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlar boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytiga (stat.uz) qo'yib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizmlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqidan foydalangan holda shakllantiradi. Bundan tashqari, Buyurtmachi pudrat ishlari va qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlarini o'tkazish, resurslarning davriy o'rtacha narxlarini tasdiqlash huquqiga egaligi belgilangan. Ushbu qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-sentabrdagi 83-son rayosat bayoniga muvofiq ajratilgan limit miqdori 15 000 mln so'mni tashkil qiladi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 2-son kasb-hunar maktabi 200 o'rinli yotoqxona qurish va binolarini rekonstruktsiya qilish" ishlarini amalga oshirish bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori, buyurtmachining boshqa xarajatlarsiz 12% QQS bilan hisoblanganda 14 973 329,809 ming so'mni tashkil etadi. Jumladan:

- qurilish materiallari va mahsulotlari uchun sarflanadigan transport xarajatlari bilan birgalikdagi xarajatlar- 6 397 851,860 ming so'mni;
- asosiy oylik uchun ijtimoiy sug'urta to'lovlari xarajatlari bilan hisoblanganda -3 492 881,162 ming so'mni;
- mashina va mexanizmlar uchun sarflanadigan xarajatlar- 371 951,534 ming so'mni;
- jihozlarning ro'yxati (texnologik vositalar) va mebel inventar jihozlar-1 291 349,813 ming so'mni;
- obyektning sug'urtalash xarajatlari (0,32%)-42 644,480 ming so'mni;
- pudratchining boshqa xarajatlari (17,27%)- 1 772 365,623 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (12 %)- 1 604 285,337 ming so'mni tashkil etadi.

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta'mirlash bo'yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun

xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosiligi yuzasidan ekspertizadan o'tkaziladi.

Bosh mutaxassis: Karimov Maxmudjon O'tkir o'g'li

Ishtirokchi ekspertlar:

TASHMUXAMEDOV ZAFAR TURG'UN O'G'LI

DOSMUXAMEDOVA MARIYA VALEREVNA

Olxovskaya Viktoriya Kamilovna

Atabayev Daniyar Baxtiyarovich

OQILXONOV JAHONGIRXON OLIMXON O'G'LI

BABAYEV ALOVIDDIN NIZAMUDINOVICH

GULYAMOV NADJIMITDIN SHARAFUTDINOVICH

TASHMUXAMEDOVA IRODA IBRATOVNA

MIRALIMOV KOZIM ANVAROVICH